

FIKR RIVOJINING KOMMUNIKATIV-PRAGMATIK XUSUSIYATLARI

H.Saipova

FarDU mustaqil izlanuvchi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7601728>

Annotatsiya: kompozitsion-sintaktik tuzilish, fikrlar rivoji, fikr-g'oya yoki mavzuning rivojlantirilishi, izohlanishi, kengaytirilishi, to'ldirilishi, kontekstual sinonimlar, shevaga xos so'z, sintaktik kompozitsiya, semantik turlar

Kalit so'zlar: sintaktik kompozitsiya, semantik tur, fikrlar rivoji, rivojlantirilishi, nutq, kompozitiv komponent, semantik birliklar

Tilshunoslikda nutqning asosiy kompozitiv komponenti sifatida boshlanma qismiga ko'proq e'tibor qaratilib, fikrlar rivoji haqida ma'lumotlar juda ham oz. Haqiqatan ham nutqda boshlanmaning roli benihoyat katta, u boshqa qismlarga nisbatan hokim, qolgan qismlari esa doimo unga nisbatan tobedir. Ammo bu fakt qolgan komponentlar (fikr rivoji, tugallanma)ning nutq tarkibidagi funksiyasi va o'rnini aslo pasaytirmaydi. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, fikr rivoji boshlanma orqali bayon qilingan fikr-g'oya yoki mavzuning rivojlantirilishi, izohlanishi, kengaytirilishi, to'ldirilishi bilan xarakterlanadi:

Salimjon kechasi yomon tush ko'rdi: burni boltaga o'xshagan, o'zi qop-qora bir barzangi Muhayyoni bir oyog'idan sudrab ketayotgan emish. Muhayyo dod solish, yig'lash o'rniga nuqul kular emish. Salimjon uyg'ondi, lekin hali esini o'nglamasdan Muhayyoga chang soldi.

A.Qahhor "Muhayyo"

Keltirilgan misoldan ko'rinib turganidek, fikr rivoji boshlanmada bayon etilgan "Salimjonning tushi" bilan bog'liq bo'lgan fakt, voqea-hodisalarni ko'rsatish, tushning sabablarini ochib berish, ularni har tomonlama asoslash uchun xizmat qiladi. Fikr rivojini tashkil etgan gaplar tarkibida olmosh turkumiga xos so'zlar ko'proq qo'llanadi. Kontekstual sinonimlar – ma'nosi bir-biriga yaqin turuvchi, bir-birini to'ldiruvchi leksemalar ishlatiladi:

To'y ikki yoshning, ikki xonadonninggina emas, ikki mahalla, butun yor-do'stlarining to'yi bo'ldi. Yer va tomlarni odam, bola-chaqa bosib ketadi. Xursand bo'lmagan odam yo'q edi. Ashula, yalla, o'yin, askiya, qiziqchilik, gur-gur kulgi... Bularni oralab yor-do'stlar yoshlarga eng yaxshi tilaklar tilashar edi. To'rga yaqin o'tirgan talabalar – Salimjonning o'rtoqlaridan biri Naimjon degan yigit so'z oldi:

A.Qahhor "Muhayyo"

Ushbu gap tarkibida kelgan yor, do'st, bola-chaqa, ashula, yalla, o'yin, askiya qiziqchilik kabi so'zlar mazmun-mohiyati bilan bir-birini to'ldirib, gapni shakllantirgan. To'y leksemasini to'ldiruvchi bu so'zlar fikrlar rivojida ifodalanib, to'liq, butun gapni tashkil qilgan. Fikrlar rivojini tashkil qiluvchi gaplar ko'tariluvchi intonatsiya bilan talaffuz qilinadi, ya'ni intonatsiya gapdan gapga tomon yuqorilab boradi.

Sintaktik kompozitsiyada nutqning turli semantik birliklari singari fikrlar rivojining ham semantik jihatlari o'ziga xosdir. Boshlanma orqali berilayotgan informatsiya fikrlar rivojida turli semantik aloqalarda o'z aksini topadi.

Umuman bu atrofda Sayfi Soqiyevichning uchastkasiga teng keladigan uy yo'q. U o'zi bilan Sirojiddinga yonma-yon qilib solgan ikkala uchastkani ham pishiq g'ishtdan qurdirgan. Ammo "Och bo'lsang berolmaydigan, to'q bo'lsang ko'rolmaydigan" "g'alamislar"ning gapidan qochib, uchastkani suvatgan edi. Keyin marmar qipig'i bilan "shuba" qildirdi. Uchastka yanayam ochilib ketdi. "Cho'ntakda pul bo'lsa – kallaga aql ham kelaveradi", deganlari bejiz emas.

O'.Hoshimov "Nur borki, soya bor"

Yuqoridagi misoldan ko'rinib turibdiki, Sayfi Soqiyevich solgan hovlisining hashamatli ekanligi boshlanmada berilgan bo'lsa, o'zbek xalq maqollari orqali fikrlar rivojida yoritilmoqda. Bunday mazmunli fikrlar rivoji ko'proq boshlanmani xalq maqollari bilan yoritib, isbot qiladi. Bundan tashqari fikrlar rivojida shunday semantik aloqadorlik mavjudki, unda emosional bo'yoqdorlik, hissiy ta'sirchanlik kechinmalari yoritiladi. Ya'ni boshlanma orqali berilgan g'oya fikrlar rivojida hikoya bilan ochib beriladi. Har qanday tinlovchi uchun bunday semantik aloqadorlik idrok qilish mexanizmini yanada shakllantiradi.

Sintaktik kompozitsiyaning shakllanishi uchun xizmat qiladigan fikrlar rivojining yana shunday semantik turi ham borki, unda boshlanma orqali berilgan fikr taxmin-gumon ma'nosida fikrlar rivoji orqali oydinlashtiriladi. Bu turdagi fikrlar rivojida yetkazilayotgan fikr ikkilanish orqali bildirilayotgan fikrga taxmin ma'nosida javob qaytaradi.

Men necha yoshga chiqdim o'zi? Yigirma ikkiga?! Yo'g'-e, axir men yetmish ikkidaman-ku! Balki sakson ikkidadir? Nima farqi bor?! "Donolar hayotni kuzaturlar jim..."

O'.Hoshimov "Tushda kechgan umrlar"

Ushbu keltirilgan parchada fikrlar rivoji taxmin-gumon ma'nosida kelib, yoritilmoqda. Necha yoshman, deya boshlanmada berilgan fikr, yetmish ikkidamanmi, sakson ikkidamanmi deya ikkilanib javob berishi fikrlar rivojida oydinlashtirilmoqda.

Biz yuqorida fikrlar rivojining semantik turlari haqida to'htalib o'tdik. Fikrlar rivojidadagi bunday semantik kategoriyalarning vazifasi bir xil, lekin ifodalanish holatlari turli xildir. Shunday ekan, boshlanmada ifodalangan fikr, fikrlar rivoji orqali turli mazmuniy bog'langan gaplar bilan yoritiladi. Mana shunday semantik turlaridan yana biri shevaga xos so'zlardir. Qaysi shevaga xos so'z bo'lmasin, fikrlar rivoji uchun muhim vosita bo'lib, fikrlarga oydinlik kiritish uchun xizmat qiladi.

Kuyganimdan gapiraman-da, Sora momo kuyganimdan, - dedi Qimmat momo.

-Bo'lam-da, ming qilsayam, bo'laginam-da!

T. Murod "Oydinda yurgan odamlar"

Yuqoridagi parchada ham fikrlar rivojini shevaga xos bo'lgan so'zlar bilan ifodalash holatlari keltirilgan. Ma'lum bir hududlar uchun tushunarli bo'lgan "bo'lam" so'zi ishlatilib, bu so'z xolavachcha ma'nosini bildiradi.

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytish mumkinki, sintaktik kompozitsiyaning qismlari sifatida boshlanma, fikrlar rivoji va tugallanmani e'tirof etishimiz mumkin. Sababi, har qanday nutq tarkibida, dastlab fikr beriladi, u turli xil vositalar bilan shakllantiriladi va mazmuniy tugallik bilan yakun yasaydi.

References:

1. Abdupattoyev M.T. O'zbek matnida supersintaktik butunliklar. NDA. – T., 1998. – B 23.
2. Baxtin M.M. Estetika slovesnogo tvorchestva. M., 1986.
3. Mamajonov A., Abdupattoyev M. O'zbek matnining semantik, sintaktik va stilistik aspekti. Monografiya. Farg'ona., "Klassik". 2021. 152- bet.
4. G'ulomov A., Asqarova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili – Toshkent: O'qituvchi, 1987.
5. Hayitmetov A. O'zbek tilida gapning aktual bo'linishi va pozision masalalari. Toshkent. "Fan", 1984
6. Hakimov M. O'zbek ilmiy matnining sintagmatik va pragmatik xususiyatlari: Filol. fanl. nomz. diss. – Toshkent, 1994.